DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-07 Pages: 48-55

Oriental Journal of Philology



THE DEPICTION OF SPIRITUALITY IN THE STORIES OF MODERN ARAB WRITERS

Dilafruz Z. Mukhiddinova
Associate professor, DSc
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: dmuhiddinova@inbox.ru
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: paratext, psychological realism, interior monologue, psychological portrait.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article reveals the artistic techniques of the human psychological state image in the modern Arabic short stories. To this end, a number of works of modern Arab writers such as Fouad al-Tekerli "Unknown wisper", Muhsin Yusuf "Sadness" as well as Zakaria Tamer "Prison" were selected. In the process of analysis the artistic skills features of psychological analysis of human state and styles verges of these writers have been studied and the means of artistic expression in the short stories have been reviewed.

ZAMONAVIY ARAB YOZUVCHILARINING HIKOYALARIDA RUHIYAT TASVIRI

Dilafruz Z. Muxiddinova
Dotsent, DSc
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: dmuhiddinova@inbox.ru
O‘zbekiston,Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so`zlar: paratekst, psixologik realizm, ichki monolog, psixologik portret.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy arab hikoyanavisligida inson ruhiyati tasvirining badiiy in‘ikosi bayon qilinadi. Bunda zamonoviy arab yozuvchilaridan Fuad at-Tekerlining “Noma‘lum pichirlash”, Muhsin Yusufning “Azob”, Zakariya Tamerning “Qamoq” hikoyalari tahlilga tortilgan. Tahlil jarayonida mazkur yozuvchilarining hikoyalaridagi inson

ruhiyati tasviridagi badiiy mahorati, uslubiy qirralari,badiiy usullari tadqiq qilingan.

ИЗОБРАЖЕНИЕ ДУХОВНОСТИ В РАССКАЗАХ СОВРЕМЕННЫХ АРАБСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ

Дилафруз З. Мухиддинова
Доцент, д.ф.н.
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: dmuhiddinova@inbox.ru
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: паратекст, психологический реализм, внутренний монолог, психологический портрет.

Аннотация: В данной статье раскрываются художественные приемы изображения психологического состояния человека в современных арабских рассказах. С этой целью отобран ряд произведений таких современных арабских писателей, как Фуад ат-Текерли “Неизвестный шепот”, Мухсин Юсуф “Печаль”, а также Закария Тамера “Тюрьма”. В процессе анализа были изучены особенности художественного мастерства психологического анализа человека и грани стилей данных писателей, а также исследованы средства художественной выразительности в рассказах.

Kirish

Adabiyot - hayot, borliq va inson qalb dialektikasini ochishda va uni yoritishda asosiy vosita ekan, zamonaviy arab yozuvchilari bu yo‘lda xilma-xil badiiy usullardan foydalanishmoqdaki, inson hilqatining barcha murakkabliklarini, inson va olam o‘rtasidagi ziddiyatlarda insonning qalb tug‘yonlarini mohirona aks ettirmoqdalar. Zamonaviy arab adabiyotida inson ruhiyatining keng ko‘lamdagi tasviriga bag‘ishlangan asarlar talaygina. Shu jumladan, mazkur maqolada iroqlik Fuad at-Tekerli, suriyalik Muhsin Yusuf, Zakariya Tamer kabi zamonaviy arab yozuvchilarining ba‘zi hikoyalari tahlilga tortildi. Maqolada mazkur yozuvchilarning asarlarida inson ruhiyatining turli holatlari, insonga tashqi muhitning, ijtimoiy ziddiyatlarning ta‘siri natijasidagi ruhiy o‘zgarishlari, hissiy kechinmalarining tasvirlash usullari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha arab yozuvchilarining hikoyalarini tahlili bag‘ishlangan manbalarda, kitoblarda usratish mumkin. Mazkur maqolada yirik arab, o‘zbek va rus olimlarining, xususan, F.at-Tekerliy, Z.Tamer, M.Yusuf, H.Umurov, U.Jo‘raqulov, U.Normatov, G. Imomova, Yu.Borev va boshqalarning manbalaridan badiiy asarda

ruhiyat tasviri va asar qahramonlarining ruhiy kechinmalarining tahliliga oid nazariy qarashlardan foydalanildi. Tadqiqot materiallarining o‘ziga hos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular biografik, qiyosiy-tiplogik, kompleks tahlil qilish metodlari asosida tahlil qilindi.

Natijalar. Iroqlik mashhur yozuvchi Fuad at-Tekerlining “Noma‘lum pichirlash”, “O‘chgan chiroq”, “Jarohat” kabi hikoyalari psixologik realizm (Y.Borev. 2001) yo‘nalishida bo‘lib, inson ruhiyatining murakkab qirralari, his-tuyg‘ulari, o‘y-kechinmalari, voqelikka nisbatan ruhiy munosabati aks ettirilgan. Shu jumladan, yozuvchining “Noma‘lum pichirlash” (At-Takarli , 2005)

Hikoyasida oilaviy munosabatlar tarkibida ota-onaning o‘zaro munosabatini farzandiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi, bunday holatda farzand qanday ahvolga tushishi, uning ruhiyatidagi o‘zgarishlarni chuqur mohirona tarzda, ta‘sirchan ochib berilgan. Hikoya syujeti asosan bosh qahramon - maktab o‘quvchisi, ya‘ni bolaning ruhiy kechinmalariga qurilgan. Yozuvchi asosiy bosh qahramonning holatini yoritib berishda yana bir personaj hikoyachi obrazini yordamchi unsur sifatida kiritadi. U ham maktab o‘quvchisidir va muallif mana shu bola tilidan ikkinchi bir bolaning hayotini, ruhiy holatini ochib beradi. Adib bunda tengqurlar, ya‘ni 10-12 yoshlardagi bolalarning psixologik holatlarini, ularning ruhiy iztiroblarini yoritib berishda ular ikkisi uchun muhim asosiy bo‘lgan manbani, ya‘ni kitobni vosita qilib olgan. Hikoyada yozuvchi yana bir bor kitobni inson hayotida qanday mavqega ega ekanligi, ham do‘st, ham dardkash, ham yo‘lboshlovchi sifatida aks ettiradi. F.at-Tekerli bu sifatlarni hikoya bosh qahramoni bo‘lmish hikoyachini, ya‘ni o‘quvchi bolani kitob magazinidan eski darslikni sotib olishida va mana shu kitobning chetida, ya‘ni hoshiyalarida ikkinchi bir bolaning dardli kechinmalarini yozganlarini o‘qishiga joylagan. Hikoyada hikoya qahramonining hayotiga doir ma‘lumotlarni yozishi huddi kundalikka o‘xshaydi. Muallif mazkur hikoyasida para¬tekst (Lipskaya, 2005, pp. 97-116) unsurlaridan foydalangan bo‘lib, hikoyada paratekst muallifning strate¬giyasi sifatida qo‘llanilgan, u hikoya bosh qahramonining, ya‘ni kitob hoshiyalariga yozgan bola hayotining turli davrlaridan tashkil topgan hayotiga doir yozilgan ma‘lumotlar orqali hikoyaning badiiy muhitiga olib kiradi. Hikoyada kitob hoshiyalariga yozgan bolaning hayoti, ya‘ni uning hayotida o‘n to‘qqiz kunda ro‘y bergan voqealar alohida qismlarda bayon etiladi va bu qismlar oy, kun kabi vaqt o‘lchovlari bilan ajratiladi. F.at-Tekerli har bir qismda ko‘rsatilgan sanadagi qahramonning hayotiga oid ma‘lumotlarni berib borgan. F.at-Tekerlining paratekstning bu shakliga (hikoya personaj hayoti xronologiyasini o‘zida mujassamlashtirgan bir necha sarlavhachalardan iborat bo‘lish) murojaat etishi, o‘quvchida bosh qahramonlarning hayoti va uning ichki kechinmalari, pisixologik holati haqida to‘liq tasavvur hosil qilishga yordam beradi, shuningdek, hikoyada bu usul ota-onasining o‘zaro yomonlashgan munosabatlaridan azob chekayotgan bolaning ruhiy kechinmalarini, dardli iztiroblarida ochib berishda o‘zaro mujassamlangan muallif g‘oyasini kuchaytiradi. Yozuvchi kitob hoshiyasiga yozgan bolaning ichki-kechinmalari, dard-iztiroblari

uning ichki monologlari orqali kuzatgan: “4 aprel. Nima uchun mening hayotim bunda... darslar, darslar, darslar? Yomon so‘zlar bilan to‘lgan bu varaqlar qachon tugaydi. Qalbimda og‘ir dard. Darhaqiqat, men shu bugungacha, hayotdan zavqlanmaganman. Bu Yerda menga hayot baxshida etadigan hech kim yo‘q. Bular tugaydimi?” (At-Takarli , 2005)

Yoki ota-onasining o‘zaro urush-janjallari, ota-onasining axloqiy kamchiliklarini ochib bergan: “5 aprel. Men otamni deyarli hecham ko‘rmayman. Onam otam bilan chorak soatgina tinch gaplasha oladi. Otam butun hayotini uydan tashqarida o‘tkazgan - qimor, ichkili, to‘polon, go‘zal ayollar, xullas, uyda o‘tirmaslik uchun har qanday bahonalar.” “14 aprel. Bu mening onam. U tunda soat birdan oshganda kelib, mening xonamga kirib o‘tdi. U ham otam kabi kayfu-safo qilgan... qimor o‘ynagan. Chunki ular boylar, dinoralr ular uchun hech qanday qiymatga ega emas”. (At-Takarli , 2005)

F. at-Tekerli bola tilidan uning ota-onasiga baho berar ekan, jamiyatdagi axloqiy illatlarga ega ota-onalarning qilmishlarini tasvirlaydi va bularning barchasini murg‘ak qalb egasi bo‘lmish bolaning ruhiyatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini kuzatadi:

“20 aprel. Ey, rabbim men ham ular kabi yashaymanmi? Ular yana urushmoqdalar. Ular bir-biriga nima deyayotganlarini ham sezmayapdilar. Soat tungi ikki yarim bo‘lib qolgan. Men eshitayotgan so‘zlarimni tushunishga harakat qilishimga ishonmay qoldim.” (At-Takarli, 2005) Yoki

“22 aprel. Men yig‘lashni hoxlayman. Kimdir meni qiynashini, qalbimni vayron qilishini, meni yaxshi ko‘radigan odam meni yoqib yuborishini hoxlayman.” (At-Takarli , 2005)

Yozuvchi oiladagi notinch muhit bola psixologiyasiga ta‘sir qilishini yoritar ekan, natijada bolalar o‘zlarini huddi hech kimga kerakmasdek his qilishlari, ularning bu hayotda yashashga bo‘lgan qiziqishlarini so‘nishiga olib kelishini tasvirlagan:

“1 may. Hayot qiyin, achchiq va beshafqat. Men uzoq yig‘lashni, qo‘llarim bilan yuragimni tilka pora qilishni hoxlayman.” “3 may. Meni o‘z-o‘zini o‘ldirish fikri qamrab oldi. Ko‘z yoshlarim ham tugamoqda. Nima uchun hamma meni shu ko‘rinishda qiynamoqda. Men ota-onamga ularga bo‘lgan muhabbatimni tushuntirishni hoxlayman. Ular meni mehrga muxtoj, bechora ekanimni ko‘rmayapdilarmi?”(At-Takarli , 2005)

F.at-Tekerli hikoyada hikoyachi orqali kitob hoshiyasida yozilgan bolaning har bir kunida oilaviy munosabatlardan ko‘rgan bolalarcha iztiroblari, dard kechinmalarini juda ta‘sirchan ko‘rsatar ekan, o‘quvchida bevosita hikoya bosh qahramoni - bolaga nisbatan hamdarlik hissini uyg‘otadi. Yozuvchi oiladagi bunday og‘ir muhit natijasida bolalarning hayotda yashashga umidlari so‘nishi, hatto o‘zlarini o‘ldirish istagi hosil bo‘lishini ayanchli tasvirlagan: “15 may. Kecha sovuq. Namgarchilik bor. Yarim tunda bog‘da shudring tushadi. Sokin tun... o‘sha yulduzlar. O‘sha samo. Uyda hech kim yo‘q. Men hozir bir o‘zimman, yolg‘izman. Umrbod

shunday qolaman. Menga shu lahzada agar men oʻlsam, baxtli oʻlaman degan hayol keldi.” “16 may. Hech narsa menga yaqinlashmaydi, na sevgi, na hayot. Men Yer va osmon oʻrtasidagi qorongʻi zulmatdaman.” (At-Takarli , 2005)

F.at-Tekerli insonni, ayniqsa, endilikda bu hayotda yashashga kelayotgan murgʻak qalbning hissiyotlari orqali kattalarcha fikr-mulohaza yuritishini, mehrsizlik, eʻtiborsizlik oqibatida yolgʻizlanib, yashashga umidi qolmasligi, yosh vujudni qanchalik ogʻir ruhiy ahvolga tushib qolishini uning dardli qalb tugʻyonlari orqali mohirona aks etgan.

F.at-Tekerlining “Nomaʻlum pichirlash” hikoyasida inson ruhiyatining murakkab xilqatlarini yoritishda oʻziga xos kompozitsion tuzilishidan foydalangan boʻlsa, suriyalik yozuvchi Muhsin Yusuf ijodida inson ruhiyatidagi toʻntarishlar, tushkunlik va koʻtarinkilik holatlari muallif nutqi, psixologik portret kabi vositalar orqali gavdalantiriladi. L.Tolstoy «sanʻatning asosiy maqsadi inson qalbi haqidagi haqiqatni aytishdir» (Umurov, 1983, p.7) degan ekan, arab yozuvchilari, shu jumladan, Muhsin Yusuf psixologik hikoyalarida jamiyat¬dagi ezilgan, ruhiy iztirobdagi insonlarning qalblaridagi dard-alamlari, kechinmalarini yoritishga harakat qilgan. Shu jumladan, Muhsin Yusufning “Azob” (Yusuf, 1988, pp. 3-25) hikoyasi ham psixlogik realizm yoʻnalishida yozilgan boʻlib, mazkur asarning syujeti ham yoshligidan ota-onasining mehriga toʻymasdan qsgan bolaning, voyaga Yetganida hayotda oʻz oʻrnini topa olmagan, ruhiy iztirobdagi insonning holatiga, fikr-oʻylariga, dard-alamlariga bagʻishlangan va bu orqali yozuvchi murakkab inson hilqatining ruhiy toʻntarishlarini taftish qilishga harakat qiladi. M.Yusuf “Azob” hikoyasida qahramon ruhiyatidagi oʻzgarishlar, iztiroblar, toʻntarishlar kabi holatlarni muallif nutqi orqali ochib beradi, bu bilan yozuvchi asar taʻsirchanligini kamaytirmaydi, yozuvchi goʻyo hikoyada oʻtkir kuzatuvchi vazifasini bajaradi: “Boshidanoq shunday boʻlgan edi. Bu murakkab olamda yolgʻiz oʻzi edi. Ushbu olamni his qilib borar ekan, atrof-muhit uning hislarini oʻzgartirdi. Bu olam bilan uning oʻzi oʻrtasida hech narsa yoʻq, ularni hech narsa bogʻlab turmasdi. Dunyodagi jamiki zotlardan inson uchun eng yaqini boʻlmish ona ham hattoki unga yaqin emasdi. Onasi undan shu darajada uzoqlashdiki, Ahmad uchun u goʻyoki avvallari hecham bilmagan bir begona ayoldek edi.” (Yusuf, 1988, p.10)

M.Yusuf otasidan erta ayrilgan va onasi boshqa odamga turmushga chiqib ketgan, bolaligida bir zumda ikki yaqin kishisidan yoʻqotgan inson ruhiyatini ochar ekan, tushkunlikda, ruhan yolgʻizlikdan qiynalayotgan hikoya bosh qahramoni Ahmadning hayotini, ongu shuurini oʻzgartirib yuborgan goʻzal tuygʻu- muhabbatni tarannum etadi: “Ahmadga nisbatan Samah Majnunning Laylisi yoki Odam Atoning Momo Havosi, yohud boʻlmasam, har qanday erkak uchun ayol nisbatida emasdi. Samah onalik muhabbati, ona mehri, orziqib kutilgan suyukli yor ifori bilan toʻla edi. Unda Ahmad muhtoj boʻlgan barcha narsa mujassam edi.”(Yusuf, 1988, pp. 12-13)

Mazkur hikoyaning syujeti yolg'izlikdan azoblanayotgan, o'zligini anglashda yo'l qidirayotgan inson hilqatini turli tebranishlaridan iborat bo'lib, yozuvchi shoirona tarzda inson qalb tug'yonlarini oynadagi aksidek tasvirlagan.

Tashqi muhitning inson ruhiyatiga ta'siri, hayotdagi fojeaviy holatlar, ijtimoiy ziddiyatlar natijasida insonning ruhiy kechinmalari suriyalik mashhur yozuvchi Zakariya Tamerning qalamida o'ziga xos uslubda namoyon bo'ladi. Zakariya Tamer "Qamoq", "Kaltakesak", "Momalqaldiroq" kabi bir qator hikoyalarida jamiyatdagi adolatsizlik, nohaqlik, haq- huquqlarini toptalishidan, ochlikdan ezilgan insonlarning ruhiy kechinmalari, iztiroblarini modernistik usulda aks ettiradi. Yozuvchi mazkur hikoyalarida jamiyatdagi mana shunday illatlar inson tabiatiga ta'siri, hattoki uning xarakteri, ongi, shuuridagi o'zgarishlarga sabab bo'lishi, oliy hilqat bo'lmish insonning bu hayotda yashashga chora qidirishi, lekin harakati besamar ketishi kabi absurdlik darajasidagi his-kechinmalarni tasvirlaydi. Shu jumladan, Z.Tamerning "Qamoq" (Tamer, 2001, pp. 9-14) hikoyasida noxaq qamalgan kishining qamoqdan qochishi va uning yaqin insoni turmush o'rtog'ining ruhiy ahvoli, iztiroblari tasvirlanib, yozuvchi ijtimoiy ziddiyatlardan azob chekayotgan insonning ruhiy kechinmalarini tush, gallyutsinatsiya kabi usullar orqali bayon etgan. Z.Tamer qamoqdan qochgan qochoqning ayanchli taqdirini uning turmush o'rtog'i Lamiyaning tushida, alahsirashida tasvirlagan. Hikoya murakkab badiiy usulda yozilgan bo'lib, qahramonlarning his-kechinmalari, ruhiy holatlari, o'y-fikrlar o'tkir tasvirlar orqali berilgan:"Lamiya kravatdan sakrab turdi, uyni oy nuri yoritib turgan edi, u qo'rqib qadam tashlab eshik tomon shoshildi va qo'rquv va hayajon bilan eshikni ochdi. Shunda, shohsiz daraxt kabi quruq tanasi qolgan, oq kafaniga o'ralib olgan erini ko'rdi." (Tamer, 2001, p. 12)

Z.Tamer qamoqdagi, tutqinlikda qiynalgan kishini, Mustafoni ozib-to'zib ketgan holatini "shohsiz daraxt kabi quruq tanasi qolgan" kabi o'xshatishi orqali obrazli ifodalaydi. Hikoyada yozuvchi qochoqning jismoniy va ruhiy iztiroblarini tasvirlar ekan insonning bu hayotda nihoyatda nochorligi, qo'lidan hech narsa kelmasligi kabi holatlarni modernistik talqinda tasvirlaydi: "Mustafo ash-Shomiy o'sha payt sudyaning qarshisida hozir bo'lganida, sudya unga jilmayib turardi. Sudyaning yuzlari burishib ketgan, yoshi minglarda edi. Mustafoga qochoq jazosi berilgan edi. Mustafo bunga qarshi hech qanday javob bera olmadi va u qabrgina insonlar uchun makondir, deya oldi." (Tamer, 2001, p.14)

Z.Tamer hikoya bosh qahramonining birgina "qabrgina insonlar uchun makondir" qisqagina javobi orqali qahramonning butun dardini, azob-uqubatlarini ifodalagan. Yozuvchi hikoyada Mustafoning fikrlari orqali hayotda bu dunyoga kelgan insonning yashash huquqi bo'la turib, turli tazyiqlar, adolatsizliklar, nohaqliklar tufayli yashash huquqidan mahrum bo'lishi, inson faqatgina o'lsagina qabrdagina tinch bo'lishini achchiq kinoya bilan ifodalagan. Z.Tamer hikoya sarlavhasi "Qamoq" nomidayoq ramziy ma'no kasb etgan. Adib mazkur hikoyasida oddiy ishchining nohaq

qamalishi tufayli ozodlikka sari intilib qamoqdan qochishi, uning bu yoʻldagi dard-iztiroblari zamirida bu dunyoni qamoqqa, insonni esa unga tushgan tutqindek oʻxshatish qilgandek goʻyo. “Qamoq” insoniyatni har tomonlama ezadigan hayot, turli nohaqlik, adolatsizlik, chorasiz qolayotgan oddiy insonlarning haq-huquqlarning toptalishi roʻy berayotgan jamiyat timsolidir. Z.Tamer mazkur kichik hikoyasida butun bashariyatga, insoniyaga taalluqli inson erki va uni yashash huquqi va unga hech kimning dahl qilishi kerakmasligi kabi dolzarb muammolarni yangi, oʻziga xos usulda aks ettirgan.

Xulosa oʻrnida shuni taʻkidlash joizki, zamonaviy arab yozuvchilari inson ruhiyatining tebranishlari, murakkabliklarini ochib berishda turli badiiy tasvir usul va uslublaridan foydalanishmoqda. Har bir ijodkor qalamida insonning ruhiy dunyosi, qalb dialektikasi oʻziga xos tarzda aks ettirilib, insonning murakkab tabiati, sirli nomaʻlum qirralari aks ettirishga harakat qilinmoqda. Fuad at-Tekerlining “Nomaʻlum pichirlash” va Muhsin Yusufning “Azob” hikoyalari psixologik realizm usulida yozilgan boʻlib, murgʻak qalbi yaralangan, oʻz vaqtida ota-ona mehrini koʻrmagan farzandning dardli iztiroblari, uning ruhiyatidagi oʻzgarishlar, oʻy-fikrlar, shaxsiy munosabatlar kuchli emotsional ravishda tasvirlangan. F.at-Tekerliy asarida inson ruhiyatini ochib berishda pratekst, ichki monologlar, M.Yusuf ham asarida muallif nutqi, psixologik portert kabi badiiy tasvir usullaridan foydalanadi. Har ikki yozuvchining asarlaridagi oʻxshashlik shuningdek, hikoyalardagi voqealar bayonida koʻrinadi, yaʻni har ikki hikoya syujeti bosh qahramonning ruhiy kechinmalarining real tasviridan tashkil topgan. Mazkur yozuvchilarning uslubidan farqli ravishda Zakariya Tamerning “Qamoq” hikoyasi oʻziga xos yangicha usulda yozilgan boʻlib, hikoya syujeti hayotda nohaq qamalgan va umidsizlikka tushgan inson hayotining tasviri orqali hayotning maʻnosizligi kabi fikrlar aks etgan. Z.Tamer asarining F.at-Tekerliy, M.Yusuf asarlaridan farqi shundaki, “Qamoq” hikoyasining har bir matni tagida tagmaʻno boʻlib, qahramonlarning har bir oʻy-qarashida jamiyat, insonlar haqidagi falsafiy mulohazalar yotadi. Z.Tamer qahramonlarning ruhiy kechinmalarini gallyutsinatsiya orqali ifodalab, roʻyoni haqiqatga, haqiqatni esa roʻyoga aylantiradi. Demak, inson hilqati sirli va murakkkab ekan, uning ruhiy dunyosi, kechinmalari, dard va alamlari, iztiroblarini tasvirlash ham nihoyatda xima-xil va rang-barangdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Tamer, Z. (2001). The Thunder. Short stories. Arra’du. Qisas qasiratun. – Ar-Riad – 130 p. (In Arabic).
2. Yusuf, M.(1988).The sorrows of those days. Short stories. . Ahzan tilk al'ayaami. Qisas qasiratun. – Damask . – 170 p. (in Arabic)
3. Joraqulov, U. (2006). Scientific and literary articles. Ilmiy va adabiy makolalar. – Tashkent .Fan – 120 p. (in Uzbek)

4. Imomova, G. (1992) Mental sufferings: (Dialogue and monologue in mental imagery). Rukhiy iztiroblar: (Akliy tasvirdagi dialog va monolog). – Tashkent. – 78. (in Uzbek)

5. Normatov, U.(1986) The Revolution of the heart. Yurak inkilobi – Tashkent. Publishing house of literature and art named after G. Ghulam. – 105 p. (in Uzbek)

6. Saidova N.M. Features of the development of the Saudi realistic story in the second half of the twentieth century. Osobennosti razvitiya saudovskogo realisticheskogo rasskaza vo vtoroy polovine XX veka. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. Germany, 2021. - 365p

7. Borev, Y. (2001). Theory of Literature. The Literary process.Teoriya literatury. Literaturnyy protsess. Moscow, Naslediye. – 450 p.(In Russian)

8. Umurov, H. (1983) The artistic psychology and Uzbek novels. Badiiy psikhologiya va uzbek romanlari.– Tashkent. Fan – 98 p. (In Uzbek)

9. Lipskaya, L.I.(2005) Preliminary discourse: functions of the preface in the modern novel. Predvaritel'nyy diskurs: funktsii predisloviya v sovremennom romane. Bulletin of Moscow State University. – Moscow, Philology, - No. 2. (9). – P. 97-116. (In Russian)

10. At-Takarli, F.(2005) Treasure of Illuminations. Stories. Kanz al'iida'ati. Qisas. – Damascus. – 120 p. archive.sakhrit.com (In Arabic).